IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING IJTIMOIYLASHUVI

Axmadova Shahloxon Voxid qizi, Guliston davlat pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya ” fakulteti 6-23-guruh magistri,
e-mail: murodxojayevashahlo@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada siz nogiron bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvida yangi pedogogik-psixologik metodikalardan foydalanish usullari, imkoniyati cheklangan bolalarni kundalik hayotga moslashtirish, inklyuziv ta’lim sifatini oshirish texnologiyalari haqida atroflicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: Nogiron bolalar, inklyuziv ta’lim, jamiyatga integratsiyalashuv, pedogogik-psixologik metodika

SOCIALIZATION OF DISABLED CHILDREN

Abstract. In this article, you will gain detailed knowledge and skills about the methods of using new pedagogical and psychological methods for the integration of disabled children into society, adapting children with disabilities to everyday life, and improving the quality of inclusive education.

Keywords: Disabled children, inclusive education, integration into society, pedagogical-psychological methodology

СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ-ИНВАЛИДОВ

Аннотация. В этой статье вы получите подробные знания и навыки о методах использования новых педагогических и психологических методов для интеграции детей с ограниченными возможностями здоровья в общество, адаптации детей с ограниченными возможностями к повседневной жизни и повышения качества инклюзивного образования.

Ключевые слова: дети-инвалиды, инклюзивное образование, интеграция в общество, педагогика-психологическая методика

Kirish. Biz ushbu tadqiqotni muhim deb hisoblaymiz, bu mavzuda bir qator G‘arb olimlari ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borgan bo‘lsada, mamlakatimizda nogironligi mavjud bo‘lgan insonlarni jamiyat hayotigaayniqsa ta’lim sohasida moslashuvida turli qiyinchiliklar uchrayotgani bois, maqolada ular xususida so‘z yuritiladi.

Butun dunyo metodikalarini oʻrganib, tahlil qilgan holda, jamiyatimizda nogiron insonlar bilan mavjud boʻlgan muammolarni koʻrib chiqish va uni atroflicha yechimini topishga qaratilgan.

- Avvalo biz nogironlik tushunchasi fanga qachon kirib kelgan uning tarifi,maqsadlari,mohiyati haqida qisqacha taqdim etamiz.
- Ikkinchidan, Butun dunyo xalqlarining, rivojlangan davlatlarning nogironlarga boʻlgan munosabatlari va ularga koʻrsatilayotgan imkoniyatlari haqida taqdim etamiz.
- Uchunchidan, Nogiron bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishda ikkita qarama-qarshi yondashuv haqida atroflicha malumotlar taqdim etamiz.
- Toʻrtinchidan, bu muammolarni hal qilishda inklyuziv ta'limning oʻrni haqida tadqiqot texnologiyasini taqdim etamiz.

Men uchun inklyuziya - bu yordamga muhtoj va ularga yordam berishga tayyor boʻlgan insonlar jamoasidir (*Mariya Men - Ijodiy birlashish doirasi fondi asoschisi*).

Har bir bolaning qalbida koʻrinmas torlar bor, ularga mohir qoʻl bilan yondashsang , ular juda chiroyli jaranglaydilar (*V. A. Suxomlinskiy*).

Bolalik - bu inson hayotidagi eng muhim bosqich boʻlib, unda shaxsiyat shakllanishi bilan birga, asosiy ijtimoiy koʻnikmalar paydo boʻladi. Bola hayotining ijtimoiy jihati uning atrofidagilar tomonidan qabul qilinishi, tengdoshlari va kattalar dunyosi oʻrtasida oʻzaro bir-birini anglashga erishishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, bola hayotining qadri va unga alohida shaxs sifatida qarash masalasi ilk marotaba XIX-asrning oxirida Yevropada mustaqil ilmiy fanlar sifatida pediatriya, pedagogika va bolalar psixologiyasining paydo boʻlishi bilan yuzaga kelgan. Shuni esda tutish kerakki, bolalik bu "katta hayotga tayyorgarlik" bosqichi emas. Biroq, hayot shunday boʻlgani uchun u ijtimoiy va ekzistensial inqiroz bilan birga kechadi. Bu davrda, ya'ni bola oʻzini-oʻzi anglash jarayonida shaxsiyat inqirozini boshdan kechirib, oʻziga va boshqalarga: "Men kimman?", "Men qandayman?", "Nega men bundayman?", "Nega ular men bilan doʻst boʻlishni xohlamaydilar?", "Men katta boʻlganimda nima boʻladi?", "Bir kun kelib oʻlishim rostmi?". Shu oʻrinda aytish joizki, har qanday jamiyatning axloqlilik darajasi uning bolalarga nisbatan munosabati bilan belgilanadi.

Nogironlik - bu qaramlik, maxsus ehtiyojlar mavjudligi hamda ularni qondirishning nogironligi mavjud boʻlmagan odamlar qoʻllaydigan yoʻlidan farqli usuli hisoblanadi. Jamiyat va nogiron kishi oʻrtasidagi munosabatlar allegoriya (*turli optimistic qarashlar*) sifatida ifodalanishi mumkin: Barcha odamlar suvni havodan toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzlashtira oladigan jamiyatni tasavvur qiling. Bunday jamiyat uchun ichishga muhtoj boʻlgan odam nogiron boʻladi. Qulay hayotda yashayotgan vaqtimizda biz oʻzimizni hech kimga qaram emas mustaqil sifatida his qilamiz. Ammo, masalan, elektrni oʻchirib qoʻysak, bizga nima boʻladi?. Barchaning turmush tarzi elektr energiyaga bogʻliqligi sababli unga qaramlikni his qilamiz. Nogiron odam boshqalardan faqat qaramligining shakli va sifati bilan ajralib turadi. Qaysidir ma'noda, shuni ta'kidlash kerakki, "odatiylikdan farqlanish" jamiyatda yana bir tuygʻu – "qiziqish"ni uygʻotadi. Boshqa tomondan, Yevropa, AQSh va Rossiyada gʻayritabiy sirklarning mashhurligini qanday izohlash mumkin? Ushbu turdagi sirk

san'atkorlari - siam egizaklari, "gigantlar", "mittilar", "qo‘shimcha" oyoq-qo‘llaridan mahrum yoki ortiqch tana a’zosiga ega odamlar - zamonaviy sportchilar va estrada yulduzlarining shon-sharafi kabi mashhur edi. 1884-yilda xuddi shunday g‘alati sirkda ishtirok etgan "fil odam" - ingliz Jozef Merrikning hikoyasi keng tarqalgan. 50-yillarning oxiri - 60-yillarning boshlaridan. G‘arbiy Evropa va Qo‘shma Shtatlarda nogironlarning huquqlarini himoya qiluvchi ijtimoiy harakat paydo bo‘lgan ularning rahbarlari asosan nogironlarga"qulay muhit" yaratish bilan shug‘ullanishgan ya’ni: jamoat joylarida liftlar, yoritgichlar va Brayl yozuvlari bilan ta’minlash, shu bilan birga, "nogiron" atamasining o‘zi birinchi marta "imkoniyati cheklangan inson" iborasi bilan almashtirilishi taklif qilindi va 2003-yilda Birlashgan Arab Amirliklari, Jazoir, Yaman, Ummon, Iordaniya va Misrda nogironlar huquqlari uchun ijtimoiy harakat tomonidan "JASUR ODAM" atamasi taklif qilingan. 2006-yilda Mark Kuinning "Homilador Alison Lapper" asari tanlov g‘olibi bo‘lgan, haykaltaroshning modeli sakkiz oylik homilador ayol edi. Ayol qo‘lsiz tug‘ilgan, oyoqlari qisman amputant. Rivojlanishdagi bunday og‘ish "Talidomid" preparatini qo‘llashning yon ta’siri bo‘lib, "talidomid falokati" deb ataladi. "Homilador Alison Lapper" - bu deyarli besh metrli oq marmar haykal bo‘lib, u Londondagi Paralimpiya o‘yinlarining ochilishida markaziy ob'ektiga aylangan.

Inklyuziv ta’lim bu – davlat siyosati bo‘lib, nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir. “Maktablar jismoniy, aqliy, ijtimoiy, emotsional, tilidagi yoki boshqa nuqsonlaridan qat’iy nazar hamma bolalarni qabul qilishi kerak. Ularga ruhiy va jismoniy nuqsoni bor bolalar, boshpanasiz bolalar, ko‘chmanchi xalqlarga tegishli bo‘lgan bolalar, etnik yoki madaniy kamchilikni tashkil etgan oilalarning bolalari kiradi” (Harakat Rejasiga kirish 3 chi band). Inklyuziv ta’lim vazifalari: - Ta’lim muassasasida ta’limda alohida ehtiyoji bo‘lgan imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zarur psixologo – pedagogik, korreksion sharoitlar yaratish, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishini, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; - Maxsus ta’lim muassasasi o‘quvchilarini umumta’lim maktablari bilan uyg‘unlashtirgan holda faoliyat olib borish yo‘li bilan o‘quvchilarning ta’limdagi tenglik huquqini kafolatlash; - Jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, bolaning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; 8 Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish;- Jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga muqobil munosabatni shakllantirishdir. Inklyuziv ta’limga kiritishning asosiy tamoyillari:

1. Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi.
2. Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo‘lishi tamoyili.
3. Bog‘lanishning mavjud bo‘lishi tamoyili.
4. Markazlashtirilmagan bo‘lish tamoyili.

5. Inklyuziv ta’limda kompleks yondashish tamoyili.
6. Inklyuziv ta’limda moslashuvchanlik tamoyili.
7. Malakaviylik tamoyili.

Maxsus pedagogika - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiliklari bor bolalarning rivojlanishidagi xususiyatlarini o‘rganadigan, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan fandir. Korreksiya so‘zi lotincha-tuzatish, bartaraf etish degan so‘zlardan olingan. Maxsus pedagogika fanining maqsadi – rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ijtimoiylashuvi, ijtimoiy adaptatsiyasi va reabilitatsiyasini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni o‘rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha ertaroq tashxis qo‘yib, bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Bola rivojlanishidagi nuqsonlar har xil bo‘ladi, ularning ba’zilari batamom bartaraf etiladi, ba’zilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, bilinmaydigan holga keltiriladi, boshqalari esa kompensatsiyalanadi. Masalan, bola nutqida og‘ir nuqson bo‘lsa, ilk yoshda to‘g‘ri tashkil etilgan logopedik chora-tadbirlar ta’sirida uni to‘liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson markaziy nerv sistemasidagi organik kamchiliklar natijasida paydo bo‘lgan bo‘lsa (masalan, aqli zaiflik shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to‘liq bartaraf etib bo‘lmasa ham, biroq kamaytirish, ko‘zga ko‘rinmaydigan, sezilmaydigan darajagacha tuzatish mumkin. Maxsus pedagogika amaliyotida yana shunday toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar kuzatiladiki, 6 ulardagi nuqsonni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo‘lmaydi, masalan, tug‘ma ko‘rlik yoki karlikning ayrim turlari shular jumlasidandir. Bunda ko‘rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko‘rish analizatoriga yuklash, ya’ni kompensatsiyalash, o‘rnini bosish mumkin. Ko‘rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyatida muammosi bo‘lgan bolalar esa imoishora, daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Nogironlarning sub'ektiv dunyosi boshqa odamlarning sub'ektiv dunyosidan qiymat-semantik o‘ziga xosligi va qobiliyatlari va cheklovlariga nisbatan ko‘proq keskinlik bilan ajralib turadi, chunki zamonaviy madaniyat holati odamlar dunyosini ajratishga asos bo‘ladi ya’ni nogironlar dunyosi va "sog‘lom"lar dunyosi. Shu sababli, nogironlik (va ayniqsa, bolalik davridagi nogironlik) nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyani ham talab qiladi. Nogiron bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishda ikkita qarama-qarshi yondashuv mavjud: birinchi yondashuv - bolani jamiyatdan ataylab olib tashlashni, so‘ngra uni o‘z turidan ajratib qo‘yishni o‘z ichiga oladi. Tug‘ilgandan boshlab, maxsus muassasada bo‘lgan holda, izolyatsiya qilingan nogiron kishi kerakli yordamni oladi, lekin ko‘pincha u umidsiz, o‘qimagan, foydasiz va ba’zan o‘zi va jamiyat uchun xavfli deb tan olinadi. Bunday yondashuv sharoitida bolaning ulg‘ayishi va keyingi hayotida notanish va qo‘rqinchli jamiyatga qo‘shilishga bo‘lgan har qanday urinish, qoida tariqasida, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Ikkinchi yondashuv - ijtimoiy reabilitatsiya imkoniyatini beradi, bu nafaqat nogironni oila muhitida tarbiyalash, balki unga mavjud bo‘lgan boshlang‘ich ko‘nikmalarni o‘rgatish, ijtimoiylashuvi maktabda o‘qishni ham nazarda tutadi, va bu

orqali unga keyinchalik kasb-hunar egallash imkonini beradi. Ijtimoiy faol bola bolalikdan jamiyatga singib ketadi, tengdoshlari va kattalar orasida do‘stlar va hamfikrlar orttira oladi. Hech kimga sir emaski, nogiron bolalar ko‘pincha ajoyib matematik, musiqiy, badiiy va boshqa qobiliyatlarga ega bo‘lib, ularni faqat nogiron shaxs va faol ijtimoiy hayot ishtirokchisi sifatida tarbiyalash va idrok etib aniqlash, qo‘llab-quvvatlash orqali rivojlantirish mumkin. Horijdagi rivojlangan davlatlarda nogiron bolalar bilan ishlash bo‘yicha ma’lum me’yorlari, shakllari va metodlari shakllanib bo‘lgan. Tabiiy-ki, har bir mamlakatda aholining mazkur kategoriyasiga yordam ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular milliy xususiyatlar, ijtimoiy-iqtosodiy shart-sharoitlar, psixologik pedagogik an’analar, ma’lum ilmiy yondashuvlarga mo‘ljallanganligi kabilar asosida shakllanadi. Shu bilan birga mazkur bolalarga yordam ko‘rsatishda inobatga olish shart bo‘lgan bir nechta umumiy tendensiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

- Birinchidan, imkoniyatlari cheklangan bolani ijtimoiy hayotga (shu bilan birga ta’lim-tarbiyaga) imkon qadar maksimal darajada integratsiyalash.
- Ikkinchidan, mazkur bolalarni oilada tarbiyalashning ustuvorligi.
- Uchinchidan, kamchiliklarni erta tashxis etish va davolashga yo‘nalganlik.
- To‘rtinchidan, har bir konkret holatda bolani reabilitatsiyasi va abilitatsiyasiga individual yondashish.

Hozirda mazkur tendensiyalarni inobatga oluvchi bir qator dasturlar yaratilmoqda hamdaishlab chiqilmoqda. Mazkur dasturlardan biri BMT tomonidan taklif etilgan – bevosita atrofdagilarga tayangan holdagi Reabilitatsiya (BATR) dasturi bo‘lib, u “barcha nogironlarni reabilitatsiyasi, imkoniyatlarini tenglashtirish va ijtimoiy integratsiyasi maqsadida amalga oshiriluvchi jamiyat rivojlanishi strategiyasidir. Uning maqsadlari: mazkur sohadagi axvolni o‘zgartirish, davlat va jamiyatni jalb etgan holda ta’limiy ishlar olib borish, barcha yordamga muhtoj nogironlarga yordam ko‘rsata oladigan tizimni ishlab chiqish”. BATRning mazmuni - nogiron, uning oilasi va bevosita atrofdagilari ba’zi asosiy reabilitatsion malakalarni o‘zlashtirgan holda reabilitatsiyani mustaqil ravishda amalga oshira olishlari mumkinligidan iborat. Albatta, bu jarayon davomida ularga sog‘liqni saqlash, ta’lim, aholini ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy muhofaza sohalarining mos muassasalari yordam ko‘rsatadi. AQShda mazkur sohada “Inklyujen” dasturi faoliyat ko‘rsatadi. Uning asosini “Reabilitatsion Akt” (№ 93-112 qonun, 1973 y.) va nogiron bolalarga ta’lim-tarbiya berish qonuni (1974-1975 y.) tashkil etib, vaqt o‘tishi bilan ularga bir qator o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritilgan. XX asrning 80 yillariga kelib AQShda nogiron insonlarni turli kategoriyalari ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda yangi binolarni qurish va eski binolarni qayta ta’mirlash ishlari boshlandi. Bu maqsadda davlat tomonidan qo‘shimcha iqtisodiy mablag‘lar ajratilgan va shu bilan birga qabul qilingan standartlarni buzishga keskin choralar ko‘rila boshlagan. Fuqarolarda nogironlarga nisbatan munosabatni o‘zgartirish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali psixolog va boshqa mutaxassislar tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan kompaniyalar o‘tkazilgan. Mazkur chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirishda diniy tashkilotlar ham muhim rol o‘ynagan. 11 Natijada nogiron insonlar jamiyat hayot faoliyatining barcha sohalarida ishtirok eta olish imkoniyatiga ega

bo‘lishdi va shu bilan birga sog‘lom odamlar ularga boshqa ko‘z bilan qaray boshladilar. Mamlakatning ko‘pgina joylarida nogironlar uchun ijtimoiy tashkilotlar, klublar va turli xil fondlar paydo bo‘la boshladi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish zarur-ki, AQShda maxsus ehtiyojlarga ega insonga qonun tomonidan belgilangan xizmatlarning aksariyat qismini munitsipalitet tomonidan taqdim etilgan moliyaviy mablag‘ evaziga maxsus fondlar va tashkilotlar amalga oshiradi.

Bolaning nogironligi bola o‘z-o‘zini anglashini ham boshqa bolalar tomonidan qadrli shaxs sifatida qabul qilinishini ham qiyinlashtiradi. Birgalikda o‘yin o‘rganishda qatnashayotgan vaqtida nogiron bola muqarrar ravishda "sog‘lom" muhitga nisbatan o‘zining "boshqachaligini" his qiladi. Ushbu "boshqachalik" tuyg‘usi, bolaning ongi uchun tabiiy bo‘lgan ijtimoiy, ekzistensial va shaxsiy inqirozni keltirib chiqaradi.Agar bolada nogironlik hayoti davomida yuzaga kelgan bo‘lsa ushbu holatga ko‘nikish bola uchun ham uning qarindoshlari uchun ham qiyin kechadi. Ayniqsa bolaning sog‘lom payti va hozirgi holatini solishtirilganda krizis holatidan o‘tish juda qiyin bo‘ladi.

Bularning ichida eng muhimi, bolaning ushbu inqirozni yengib o‘tishi va keyinchalik ijtimoiylashuvi uchun bolaning jismoniy reabilitatsiyasi, uning psixologik reabilitatsiyasi bilan birga bo‘lishi kerak. Nogironlik darajasiga qarab, reabilitatsiya bir necha yildan butun umrgacha davom etadi. Nogiron bolani ijtimoiy va psixologik reabilitatsiya qilish usullaridan biri uning "sog‘lom" tengdoshlari bilan birgalikda "aralash" deb ataladigan sinflarda o‘qitilishidir. INKLYUZIV TA’LIM - ta’limning bu shakli bolaga va uning sinfdoshlariga bir-biriga nisbatan o‘zaro noto‘g‘ri qarashlarni asta-sekin yengib o‘tishga imkon beradi. Uyda o‘qitish shakli ham muhim, bunda o‘qituvchining o‘quvchiga individual yondashuvi tufayli to‘liq huquqli ta’lim olish imkoniyatini beradi va ochiq darslar va sinf tadbirlarida qatnashishda bola va sinfdoshlar o‘rtasida muloqot bo‘ladi.

Bolaning tibbiy muassasada davolanish va reabilitatsiyada uzoq vaqt qolsa mashg‘ulotlar reabilitatsiya jarayoni bilan parallel ravishda amalga oshirilishi kerak. Ta’limning ushbu shakli bilan nafaqat tibbiy muassasaga birlashtirilgan maktab, balki bolaga va uning qarindoshlariga zarur yordamni ko‘rsatishga tayyor bo‘lgan pedagog-psixologning faoliyati ham katta ro‘l o‘ynaydi. O‘rta yoki oliy ma’lumotli ta’limning maqsadi - bolani ijtimoiy jarayonga jalb qilish, bolaning iste'dodi va moyilligiga mos keladigan kasbni egallashga imkon beradigan qobiliyat va ko‘nikmalarni rivojlantirish va unga voyaga yetganida moddiy mustaqillikka erishishga yordam berish.Kasbning mavjudligi, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish nogironni nafaqat izlanuvchi shaxsga aylantirishga, balki uning faoliyatiga jamiyat tomonidan berilgan bahoni ham, o‘zini o‘zi qadrlashini ham oshiradi. Mehnatkashlar jamiyati, ya’ni, "nogiron"dan butun jamiyat uchun ham, uning yaqin atrofi uchun ham, vanihoyat, o‘zi uchun ham o‘z qadr-qimmatini anglaydigan shaxsga aylanadi. Nogiron bolaning psixologik reabilitatsiyasida uning oilasi va yaqin atrofi muhim ro‘l o‘ynaydi. Mehribon oila muhiti bolaga ishonch bag‘ishlaydi va nafaqat harakat, balki muloqot qo‘rquvini yengish uchun kuch beradi, unga shaxs sifatida o‘zining so‘zsiz qiymatini his qilishiga yordam beradi. Reabilitatsiya jarayonida nafaqat bolaning o‘zi va shifokorlar jamoasi, balki bolaning oilasi faol ishtirok etishi kerak bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, Afsuski zamonaviy jamiyatda nogiron va sog‘lom insonlarni muammolariga ko‘pincha ikkiga bo‘lib "Bizniki" va "Ularniki" deb qaraymiz. Bu narsa sog‘lom insonlarni hafa qilganidek nogironlarni ham birdek kamsitadi. Bundan tashqari, bolaning atrofidagilar uni ustidan kulib undagi fikrni o‘zgartirishadi va nogironlik ularni "O‘zgacha" odam to‘liqroq qilib aytganda "Hech kim tushunmaydigan" "maxsus" munosabatlarni talab qiladigan inson sifatida o‘zini qabul qilishga majbur qiladi. Bunday ajratishlar bolada jamiyatga bo‘lgan agressiyasi kuchayadi buni natijasida bola butun dunyodan qo‘rqib qoladi.Ikkita sog‘lom bola bir xil emas va nogironlikning ikkita "holati" ham bir xil bo‘lmaydi. Shuning uchun, hatto guruh reabilitatsiyasi bilan ham, har bir bolaga individual yondashuv afzalroqdir.

Nogironlarning ijtimoiy holati muammosi yaqinda juda ko‘p sonli tadqiqotchilarning e’tiborini tortdi (V. M Astapov, O. I. Lebedinskaya, B. Yu.Shapirov, E. F Achildieva, A. A. Baranov, R. G. Ignatieva, L. K. Grachev, T. A. Dobrovolskaya, I. P. Katkova, V. V. Kuznetova, S. S. Kuchinsky, S. P. Pyapkov, G. G. Silaste, N. B. Shabalina, I. A. Shames, S. P. Shevchuk, Yu. G. Ellanskiy). Shunga qaramay bu muammoning yechimi hali ham ko‘proq tahlil va tushunishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бонхоффер Д. Жить вместе. – М.: Триада, 2000. – 446 с.
2. Достоевский Ф.М. Идиот. – М., 2006. – 236 с.
3. Скульптор Марк Куин (http://ibigdan.livejournal.com/8561845.html).
4. Гальего Рубен Давид Гонсалес. Белое на черном. М.Лимбус Пресс, 2005. – 224 с.
5. Петросян Мариам. Дом, в котором (иллюстрированное издание). – М.: Гаятри / Livebook, 2017. – 968 с.
6. Кулагина Е. В. Образование детей-инвалидов и детей с ограниченными возможностями здоровья: социально-экономический аспект. – М.: ООО «Деловые и юридические услуги “ЛексПраксис”», 2014. – 206 с.
7. Полоухина Е. А. Особенности семейного микроклимата в семьях с детьми-инвалидами // Вестник СПбГУ. – 2008. – Вып. 3. Серия 12. – С. 143–148.
8. Богданова М. А. Институт Спорта: социокультурная динамика. – Ростов н/Д: Южный федеральный университет, 2013. – 341 с.
9. Фуряева Т. В. Интегрированный подход в организаци воспитания и обучения детей дошкольного возраста с проблемами в развитии (зарубежный опыт) / Дефектология, №1 1999-10 с.
10. M. U. XAMIDOVA ”Maxsus pedogogika”, Toshkent-2018-yil 5,7-8-betlar.